lik zamonaviy inson tajribasining parchalanishini, o‘tgan hayotiy tajribalarning keltirib chiqargan psixologik iztiroblarni va mavjudlikning ma’nosizlik g‘oyasini yoritish uchun xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu maqolada Nirmal Varmaning dastlabki hikoyalari “yangi hikoya” (“नयी कहानी”) harakati asosida yaratilgan bo‘lib, undagi bayon uslubidagi o‘zgarishlarni hamda ular nima maqsadda foydalanganligini aniqlash maqsadida Janet modelidan foydalanib shuni aytish mumkinki, adibning tahlil ostiga olingan barcha hikoyalarida o‘tmishga qaytishlardan foydalanilgan bo‘lib, ko‘p qatlamli xotiralar asosida o‘tmishga qaytishlar guruhlashgan holda aks ettirilgan. Hikoyalardagi o‘tmishga qaytishlar oddiy bayon usul sifatidan chetga chiqib, balki badiiy maqsadni tasvirlash uchun muhim badiiy vosita sifatida foydalanilgan. Ko‘p qatlamli xotiralar (D3,G3,H3) va psixologik o‘tmishga qaytishlar orqali Varma o‘z qahramonlarining hozirgi hayotiga ta’sir qilgan yoki bugungi hayotini qanday bo‘lishiga sababchi ichki, yoki ruhiy jarohatlarni ochib bergan. Shuni ta’kidlash joizki, adibning bayon usuli rivoji haqida yanada chuqur tahlillar olib borilishi mumkin, ayniqsa, uning “yangi hikoya” (“नयी कहानी”) harakatidan so‘ng yozilgan hikoyalarini tahlil qilish, bayon qilish (Narratologiya) ilmi uchun ham kerakli ilmiy hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. T., Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020, 552-bet.

(2). नामवर स. कहानी नई कहानी. – द.: लोकभारती प्रकाशन, 1982, 196 प.

(3). Chris B. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. USA, Oxford University Press Inc, 2001, 291-bet.

(4). Gerard G. Narrative Discourse. USA, Cornell University Press, 1980, 284-bet.

(5). निर्मल व. परिंदे. – द.: राजकमल प्रकाशन, 2024, 182 प.

(6). Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. T., Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020, 552-bet.

(7). Цветкова С.О. Очерки истории литератур Индии: X–XX вв. СПб, Санкт-Петербургский Государственный университет, 2014, 320 с.

https://orcid.org/0000-0001-6347-1203

Ulkanboyeva Matluba Hasanboy qizi (O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti; matluba-1990@umail.uz)

O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA BADIIY KOMPOZITSIYA TIPOLOGIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar hikoyachiligida badiiy kompozitsiya qurilishidagi an’anaviylikning davom etishi va uning zamonaviy talqinda yangilanishi tahlil qilinadi. Mahorat bilan tashkillangan kompozitsion butunlik ijodkorning badiiy niyati va estetik pozitsiyasini ochishda muhim omil bo‘lishi mumkinligi, shuningdek, ayrim kompozitsion kombinatsiyalar davrlararo adabiy an’anaga aylanib, zamonaviy hikoyachilikda ham davom etayotgani misollar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy kompozitsiya, badiiy obraz, sujet, roviy, kompozitsion tafakkur, badiiy unsurlar, an’anaviylik, novatorlik.*

Улканбоева Матлуба Хасанбоевна (докторант PhD Института узбекского языка, литературы и фольклора)

ТИПОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ КОМПОЗИЦИИ В УЗБЕКСКОМ РАССКАЗЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется продолжение традиции в построении художественной композиции в молодежной прозе и её обновление в современной интерпретации. На основе примеров рассматривается, как мастерски организованная композиционная целостность может стать важным фактором в раскрытии художественного замысла и эстетической позиции автора. Также анализируется, как некоторые композиционные приемы, превратившись в межпериодную литературную традицию, продолжают существовать и в современном повествовании.*

Ключевые слова: *художественная композиция, художественный образ, сюжет, рассказчик, композиционное созерцание, художественные элементы, традиционность, новаторство.*

Ulkanboyeva Matluba Hasanboy qizi (PhD student, Institute of Uzbek language, literature and folklore)

TYPOLOGY OF ARTISTIC COMPOSITION IN UZBEK STORY

Annotation. *This article analyzes the continuation of tradition in the construction of artistic composition in youth prose and its renewal in contemporary interpretation. Through examples, it examines*

(ekzistensializmdan farq qilaroq, bunda model ham reallik illiuziyasini hosil qiladi) intilish kabilar shu fikrga olib keladi. Taxminimizning qanchalik haqiqatga yaqin-uzoqligini, bu o‘xshashlikning sabab va omillarini keyingi izlanishlar ko‘rsatar. Biroq shuning o‘ziyoq, A.Qahhor doim ham hokim mafkura iskanjasida, sotsialistik realizm qoliplari doirasida qolib ketmagan, ijod onlarida ba’zan ichki erkinlikka ham ega bo‘lgan deyishga asos beradi”.

Professor D.Quronov “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida kompozitsion tafakkur” maqolasida sujet voqealarining qismlarga ajralishi va har bir uzv muallif badiiy niyatini ochishga xizmat qilgani xususida fikr yuritadi [6;46–51-b.]. Olim kompozitsion tafakkur nazariyasiga oid muhim qarashlarni ilgari suradi. Shuningdek, ushbu hikoya misolida Cho‘lponning boshqa asarlaridagi kompozitsion butunlik va uning ahamiyati haqida ham to‘xtaladi. “Cho‘lponning boshqa nasriy asarlarida ham kompozitsion tafakkur imkoniyatlaridan samarali foydalanilgan. Jumladan, «Kecha» romanida Zebi va Maryam obrazlarining yonmayon qo‘yilgani, kundoshlarning bir-birini to‘ldirgan holda bitta taqdirni umumlashtirishi; «Novvoy qiz»-dagi kompozitsiya darajasida qo‘llangan kontrast usuli, «Nonushta» hikoyasida boshlanish va yakunning bir xilligi – bari muayyan fikrni ayni shu usulda ifodalashga xizmat qiladi” [6;51-b.].

Ushbu adabiy-ilmiy tajriba adabiyotshunoslikning yangi metodologiyasiga asos soladi. Demak, badiiy kompozitsiya nafaqat asar sujeti va fabulasi bilan bog‘liq, balki badiiy obrazlar va detallarning asarda o‘rinlashuvida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yuqoridagi ilmiy-adabiy tajribalar asosida XX asr o‘zbek hikoyachiligida kompozitsion tafakkur tadrijini kuzatish va bu an’nana zamonaviy hikoyachilikda qay tarzda davom etayotgani va yangilanayotganini tahlil qilish, yangi mulohazalarni o‘rtaga tashlash mumkin. Bunda tarixiy-qiyosiy hamda struktur tahlil metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi deb o‘ylaymiz. Keyingi mulohazalarimizda ushbu metodlardan foydalanamiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqoridagi mulohazalardan ayon bo‘ladiki, Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasidagi obrazlarni uchlik munosabatda (Sharofatxon – Eshon – mahalla-ko‘y) ifodalanishidan ma’lum adabiy maqsad ko‘zlangan. Matematikada to‘qqiz taqsim uchni yaxlit uchgacha qisqartirish imkoni bo‘lganidek, adabiyotda ham real voqelikni qisqartira borish, mikrobadiiy olam orqali ulkan borliq tasvirini berish mumkin. Bu xuddi D.Quronov Qobil bobo – amaldorlar – mahalla-ko‘y obrazlari ortida Sho‘ro tuzumida yakkalangan shaxs va befarq olomon fojiasini ko‘rgani kabi holdir. Zotan, “O‘g‘ri”da atoqli olimimiz tomonidan kuzatilgan triada fojiasi “Qor qo‘ynida lola” hikoyasidagi triadaning mantiqiy davomidir. Cho‘lpon Sharofatxon obrazi orqali yolg‘izlangan shaxsiyatni, Eshon bobo obrazi orqali mustabid tuzumni, mahalla-ko‘y ramzi orqali befarq olomonni nazarda tutib, o‘z davri voqeligining in’ikosini yaratganiga shubha yo‘q.

Obrazlarni uch nuqtaga joylashtirish va davr voqeligidagi ziddiyatni ko‘rsatish adabiy an’ana sifatida yashashda davom etdi. Shukur Xolmirzayevning “Cho‘loq turna” hikoyasida cho‘loq turna – yolg‘izlangan shaxs, gala – befarq olomon, tabiat esa mutlaq hokimiyat timsolida namoyon bo‘ladi. Adib yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligida ham kollektivlashtirish shaxs qiymatini yo‘qqa chiqargan, istiqlol orzusidagi ziyoli cho‘loq turnaday yolg‘iz o‘zi mutlaq hokimiyatga qarshi kurashishga majbur bo‘lgan vaziyatligini hisobga olsak, tahlillar o‘zini oqlaydi. Yolg‘izlanib qolish xavotiri ijodkorni o‘z olamiga chuqurroq kirib ketishiga, asl badiiy niyati va xulosalarini ramzlar ortiga yashirib ifodalashiga sabab bo‘ldi va adabiyotda istalmagan shunday an’ana shakllandi. Ushbu silsilada “Mening o‘g‘rigina bolam”, “Fanorchi ota”, “O‘g‘ri”, “Anor”, “Dahshat”, “O‘zbek xarakteri”, “Bandi burgut”, “Cho‘loq turna”, “Baliq ovi”, “Hovlidagi daraxt”, “Kichkina pushtirang maxluqcha” kabi qator klassik hikoyalar yaratildi. Aytish mumkinki, bu adabiy an’ana bugungi yoshlar hikoyachiligida ham davom etmoqda.

Raxshona Ahmedovaning “O‘qituvchining sukuti” hikoyasi ham yuqoridagi kabi uch tayanch nuqta asosiga qurilgan. Abdusamad domla – majlisning boshqa a’zolari – “katta”. Muallif “katta”ning qanday amal egasi ekanini izohlamaydi. Uni barcha huquqqa ega qahramon sifatida tasvirlaydi. “Katta”ning Abdusamad domlaga nisbatan munosabati, muomalasi tasvirida xarakteri chiziladi.

– “Nimaga dalaga chiqarmading? – “katta”ning yuz-ko‘zidan olov sachrab, savol-javob qilarkan, xonada yigirma-o‘ttiz chog‘li kishi o‘tirar, birma-bir turg‘azmoqda edi.

–Aziz Akbarovich, – dedi Absamad domlaning jur’ati yetib, – ikki oydan beri hamma dalada, o‘qish yo‘q, programmadan ortda qolib ketyapmiz...” [7;127-b.].

Suhbatning davomida “katta” o‘zini tutolmay qoladi va Abdusamad domlaga qo‘l ko‘tarib yuboradi. Shaxslik huquqining poymol bo‘lishi va ilojsizlik Abdusamad domlaning hayotiga nuqta qo‘ydi. Majlisda “jim” turolmagani uchun izzat nafsi yerga qorilgan Abdusamad domla bir umr “jim” qoldi. Alam qiladigani 20–30 chog‘li majlis boshqa a’zolari ham sukut saqlashi, jabrdiydani yolg‘izlatib, quruq tomoshabin bo‘lib

qolishida. Paxta siyosatining ogʻriqli nuqtalarini qalamga olgan muallif salaflar ijodida ushbu adabiy anʼanadan qolip sifatida foydalanadi, ammo yangi davrning yangi muammosini oʻrtaga tashlaydi.

Hikoya kulminatsiyadan keyingi holdan boshlanadi. Yechimga yaqin qolgan holat tasviridan tugunga oʻtiladi. Tugun qoʻyilgach, Abdusamad domlaning olis oʻtmishiga keyin esa yana tugunga qaytiladi. Voqealar rivoji "qayta eslash" tarzida kiritiladi. Nihoyat kulminatsiya boʻy koʻrsatadi. Kulminatsiyadan yechimga kelinadi. Hikoyaning qurilishidagi individuallik bilan muallif kitobxon diqqatini tutib turishga erishgan. Obrazlar joylashuvidagi uchlik bilan esa asosiy badiiy niyatini amlaga oshirgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilsak, R.Ahmedova oʻzbek adabiy tajribalari, anʼanalaridan oziqlangan holda yangi davr muammosiga nigoh tashlaydi va ijodiy pozitsiyasini namoyon qiladi. Bu esa adabiy anʼanalar zamonaviy oʻzbek nasrida ham davom etayotganini koʻrsatadi. Raxshona Ahmedova salaflari kabi obrazlarni uch nuqtaga joylashtiradi, umumiy kompozitsiyasida esa oʻziga xosligini saqlaydi.

Badiiy asarni tahlil qilishda obraz tabiati, sujet, badiiy detallar qatorida kompozitsion tafakkur imkonlaridan foydalanish yangi talqinlarga yoʻl ochishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Miliyev S. Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi. F.f.d. (DSc) dissertatsiyasi, T., 2020, 226-bet.
(2). Hamdamov U. Abdulla Qodiriy va oʻzbek adabiyoti. T., "Yangi asr avlodi", 2022, 208-bet.
(3). Hamroyev K. Hikoya kompozitsiyasi. T., "Nurafshon business", 2020, 140-bet.
(4). "Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati", 1995, 23-iyun.
(5). Quronov. D. Mutolaa va idrok mashqlari. T., "Akademnashr", 2013, 336-bet.
(6). Quronov. D. Adabiyot va boshqalar haqida. T.: "Akademnashr", 2019, 142-bet.
(7). Ahmedova R. Tushunarsiz sevgi izhori. T., "Read book" nashriyoti, 2023, 190-bet.

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna (Qoʻqon universiteti Andijon filiali, "Tillarni oʻqitish" kafedrasi mudiri; E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmal.com)

MARKAZIY OSIYO TASAVVUF ADABIYOTI FRANSUZ MADANIY IDROKIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyotining fransuz madaniy idrokida shakllanishida Aleksandr Papas tadqiqotlarining oʻrni tahlil qilinadi. Papasning nazariy qarashlari, ijodiy tatabbu' anʼanasi, mashhur mutasavvif adiblar ijodiga oid ishlari hamda tasavvufiy matnlarning fransuz madaniy kontekstida qabul qilinishi koʻrib chiqiladi. Papas qoʻllagan metodologiyaning Yevropa ilmiy jamoatchiligi tomonidan Markaziy Osiyo tasavvuf adabiyotini tushunish va baholashdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit soʻzlar: *Markaziy Osiyo, tasavvuf adabiyoti, Aleksandr Papas, fransuz madaniy idroki, tatabbu', adabiy meros, madaniyatlararo aloqalar.*

Насирдинова Ёркиной Абдумухтаровна (заведующая кафедрой преподавания языков, Кокандский университет, Андижанский филиал; E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmal.com)

СУФИЙСКАЯ ЛИТЕРАТУРА СРЕДНЕЙ АЗИИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ КУЛЬТУРНОМ ВОСПРИЯТИИ

Аннотация. *В статье анализируется роль исследований французского учёного Александра Папаса в формировании французского культурного восприятия центральноазиатской суфийской литературы. Рассматриваются теоретические подходы Папаса, традиции литературного подражания (татаббу'), его изучение творчества выдающихся суфийских авторов, а также восприятие суфийских текстов в контексте французской культуры. Раскрывается значимость методологии Папаса в знакомстве европейского научного сообщества с суфийской литературой Центральной Азии.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, суфийская литература, Александр Папас, французское культурное восприятие, татаббу', литературное наследие, межкультурные связи.*

Nasirdinova Yorkinoy AbdumuxtarovnaHead of the Department of Language Teaching, Andijan Branch of Kokand University; E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmal.com)

SUFI LITERATURE OF CENTRAL ASIA IN FRENCH CULTURAL PERCEPTION

Annotation. *This article analyzes the role of French scholar Alexandre Papas's research in shaping the French cultural perception of Central Asian Sufi literature. Papas's theoretical approaches, traditions of literary imitation (tatabbu'), his studies of prominent Sufi authors, and the reception of Sufi texts within*